

Germaniya Federal prezidenti O'zbekistonga keldi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer 27-may kuni rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga keldi.



Toshkent xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov kutib oldi.



Tashrif doirasidagi asosiy tadbirlar 28-may kuni “Ko’ksaroy” qarorgohida bo’lib o’tadi. Tor va keng doiradagi muzokarlarda siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik va madaniy-gumanitar hamkorlikni, shuningdek, O‘zbekiston – Yevropa Ittifoqi formati doirasidagi aloqalarni rivojlantirish masalalari muhokamasi kutilmoqda.

Shuningdek, Germaniya Federal prezidenti ishbiarmon doiralar va jamoatchilik vakillari bilan uchrashishi va boshqa tadbirlarda qatnashishi rejalashtirilgan.

Frank-Valter Shtaynmayer 29-may kuni Xorazm viloyatida bo’ladi.



